

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.11/2025.27.12.San.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

ERMATOVA SADOQAT NASRULLAYEVNA

**BO‘LAJAK FOLKLOR IJROCHILARINING AKTYORLIK KO‘NIKMASINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(san’atshunoslik)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Ermatova Sadoqat Nasrullayevna

Bo‘lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish..... 3

Эрматова Садокат Насруллаевна

Совершенствование методики развития актерских навыков будущих фольклорных исполнителей 23

Ermatova Sadokat Nasrullayevna

Improvement of the methodology for developing acting skills of future folklore performers..... 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 49

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.11/2025.27.12.San.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

ERMATOVA SADOQAT NASRULLAYEVNA

**BO‘LAJAK FOLKLOR IJROCHILARINING AKTYORLIK KO‘NIKMASINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(san’atshunoslik)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Ped5271 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.dsmi.uz) hamda "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Rasmiy opponentlar:

Isakulova Nilufar Janikulovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Shodiyeva Matluba Jo'rayevna
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:


O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi Ph.D.11/2025.27.12.San.02.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2026-yil 12-may soat 14.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127 "A"-uy. Tel.: (+99871) 230-28-02; faks: (+99871) 230-28-15; e-mail: uzdsmi@madaniyat.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (43 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127 "A"-uy. Tel.: (+99871) 230-28-58; faks: (+99871) 230-28-15).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 20-aprel kuni tarqatildi.

(2026-yil 20-apreldagi 10-raqamli reyestr bayonnomasi).



M.T.Tulyaxodjayeva
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi,
san'atshunoslik fanlari doktori, professor

D.M.Mulladjanov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

A.A.Umarov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, sotsiologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga ularning ijtimoiy-madaniy kompetentligini yuksaltirish, kreativ va individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga yo‘naltirilgan ta‘lim metodlari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Butunjahon ta‘lim forumi tomonidan e‘tirof etilgan 2030-yilgacha xalqaro ta‘lim konsepsiyasining “Barcha uchun adolatli, sifatli ta‘lim sari”¹ g‘oyasini hayotga tatbiq etishda oliy ta‘lim tizimida bo‘lajak folklor ijrochilarini tayyorlash jarayonida milliy merosni chuqur o‘zlashtirish va uni sahna san‘ati orqali ifodalay olish, talabalarni kasbiy faoliyatga puxta tayyorlashda ularning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish jadallashmoqda. Bo‘lajak folklor ijrochilarining nafaqat ijodiy salohiyatini, balki ularning kasbiy bilim, kommunikativ kompetensiya va sahna madaniyati, aktyorlik mahoratini yuksak darajada shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda zamonaviy ta‘lim nazariyasida folklor ijrochiligining sahna talqinida aktyorlik mahoratini rivojlantirish asoslari, milliy ijro uslublarni chuqur o‘zlashtirish, obraz yaratish, voqealarni sahnaviy ifodalash imkoniyatlari keng tadqiq etilmoqda. Folklor ijrochilarining ijro texnikasi, nutq madaniyati, sahna harakati, emotsional ta‘sirchanligi hamda ijodiy-estetik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion ta‘lim texnologiyalari hamda art texnologiyalardan foydalanishning interfaol metodlari o‘rganilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda oliy ta‘limda folklor ijrochilarining aktyorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida urg‘u berish, pedagogik jarayonga multimodal yondashuvlar va zamonaviy raqamli vositalarni integratsiya qilish orqali kasbiy tayyorgarlikni sifat jihatidan oshirish va yangicha yondashuvlarni tadqiq etish dolzarb zaruratga ega bo‘lmoqda.

O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida madaniyat va san‘at sohasini rivojlantirish, milliy merosni asrab-avaylash va uni keng targ‘ib etishga qaratilgan islohotlar natijasida ijodiy sohalarda faoliyat yurituvchi mutaxassislarning kasbiy mahoratiga bo‘lgan talab ortib bormoqda. “Ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish”² hamda “Madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va ommalashtirish bilan bog‘liq faoliyatni yanada takomillashtirish”, buning uchun esa, “yoshlarni madaniyat va san‘atga keng jalb etish va ularning madaniy hayotini boyitib borish”³ ustuvor vazifalar sifatida qaralmoqda. Bo‘lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, mavjud ta‘lim jarayonini tizimli yangilash va zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan boyitish vazifalari ustuvorlik kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-yanvardagi O‘RQ-668-son “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi

¹ Incheon declaration // Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all. World Education Forum, May 19-22.2015, Incheon, Republic of Korea.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi 131 “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-37-son Farmoni. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 23.02.2024-y., 06/24/37/0146-son.

Prezidentning 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni, 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112son “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2024-yil 22-noyabrdagi PQ-399-son “Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda folklor ijrochilik san’ati, folklor janrlarining poetik tuzilishi hamda xalq og‘zaki ijodining tarbiyaviy va estetik ahamiyati bo‘yicha A.A.Ashirov, J.S.Eshonqulov, M.Jo‘rayev, M.Sh.Murodova, N.K.Qosimov, B.Yu.Sangirov, G‘.Soatov, O‘.G.Toshmatov, S.N.Yo‘ldosheva, Sh.G‘.Shomusarov¹, aktyorlik san’ati va obrazli ifoda vositalari, shuningdek, sahnaviy ko‘nikmalarni rivojlantirishga doir yondashuvlar bo‘yicha F.E.Ahmedov, M.I.Ismoilov, J.O.Mahmudov, J.A.Mamatqosimov, B.S.Sayfullayev, M.B.Umarov, M.R.Yusupova², dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchi va talabalarning umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari bo‘yicha N.M.Egamberdiyeva, G.X.Ibragimova, N.J.Isaqulova, A.Y.Isimova, M.J.Ishmurotov, D.U.Jumanazarova, B.X.Madramimov, U.I.Mahkamov, R.M.Mamatqulova, O.Musurmonova, O‘.M.Rajabov, A.Y.Teshaboyev,

¹ Ashirov A.A. “Avesto”dan meros marosimlar. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2011. – 168 b.; Eshonqulov J.S. O‘zbek folklorida tush va uning badiiy talqini: Fil. fan. dok. dis. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti, 2010. – 245 b.; Jo‘rayev M. O‘zbek xalq samoviy afsonalari. – Toshkent: Fan, 1995. – 126 b.; Jo‘rayev M. O‘zbek mavsumiy marosim folklori. – Toshkent: Fan, 2008. – 204 b.; Murodova M.Sh. Folklor va etnografiya. – Toshkent: Aloqachi, 2008. – 109 b.; Qosimov N.K. O‘zbek xalq laparlari (janr spetsifikatsiyasi va badiiyati): Fil. fan. nom. dis. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi Adabiyot instituti, 1998. – 125 b.; Qosimov N.K. Folklor musiqa ijrochiligi. – Toshkent: Talqin, 2008. – 192 b.; Sangirov B. O‘zbek teatrida etnomadaniy an’analar talqini. San. fan. dok. dis. – Toshkent, 2019. – 140 b.; Soatov G‘. O‘zbek xalq an’anaviy bayramlari tarkibidagi folklor asarlarining poetik xususiyatlari: Fil. fan. nom. dis. – Toshkent: O‘z.R. FA A.Navoiy nomidagi Adabiyot instituti, 1993. – 144 b.; Toshmatov O‘.G. Folklor qo‘shiqchilari – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2003. – 135 b.; Yo‘ldosheva S.N. Folklor-etnografik ansambllar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007. – 272 b.; Yo‘ldosheva S.N. Folklor-etnografik jamoalari uslubiyati. – Toshkent: Navro‘z, 2014. – 164 b.; Shomusarov Sh.G‘. Arab va o‘zbek folklori tarixiy-qiyosiy tahlili: Fil. fan. dok. dis. – Toshkent: Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti, 1998. – 299 b.

² Ahmedov F.E. Ommaviy tadbir va bayramlar rejissurasi va aktyorlik mahorati. – Toshkent: Cho‘lpon, 2007. – 304 b.; Ismoilov M.I. Rejissura va aktyorlik mahorati fanlari bo‘yicha o‘tkaziladigan amaliy mashqlar. – Toshkent, O‘zRFA bosmaxonasi. 2003. – 144 b.; Mahmudov J.O. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: Bilim, 2005. – 192-b.; Mahmudov J.O. Sahna kompozitsiyasi alifbosi. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – 202 b.; J.A.Mamatqosimov. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: Lesson press, 2019, – 220-b.; Sayfullayev B.S., Mamatqosimov J.A. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 388-b.; Umarov M.B., Yuldashev T. Rejissyorlik va aktyorlik san’ati asoslari. Darslik. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2018. – 320 b.; Yusupova M.R. va boshqalar. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: O‘zR FA Asosiy kutubxonasi bosmaxonasi, 2015. – 128 b.

A.T.Tilegenov, D.T.Tog‘ayeva, M.Quronov¹ talabalarining ma‘naviy, ijtimoiy-kasbiy va kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirish, ularning umuminsoniy va milliy badiiy qadriyatlarga qiziqishini rivojlantirishning pedagogik asoslari bo‘yicha Sh.Q.Mardonov, A.T.Nurmanov, D.I.Ruziyeva, B.X.Xodjayev, Sh.S.Sharipov, D.D.Sharipova² va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

MDH mamlakatlari tadqiqotchilaridan V.Vasiliki, I.Davidova, B.Ye.Zaxava, G.V.Kristi, O.A.Kiryanova, V.Pushkarev, Ch.Ch.Pak, K.S.Stanislavskiy, A.V.Chepinoga³ tomonidan folklor va xalq og‘zaki ijodining zamonaviy rivojlanish

¹ Egamberdieva N.M. Madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy hamda kasbiy ijtimoiylashtirish nazariyasi va amaliyoti (pedagogika oliy ta‘lim muassasalari misolida): Ped. fan. dok. dis. – Toshkent: 2010. – 332 b.; Ibragimova G.X. Kasb ta‘limi tizimida milliy istiqloq g‘oyasi asosida o‘quvchi-talaba-yoshlar ma‘naviyatini rivojlantirish: Ped. fan. dok. dis. – Toshkent, 2007. – 276 b.; Isakulova N.J. Uzlaksiz ta‘lim jarayonida o‘quvchilarga fanlararo ekologik tarbiya berishning nazariyasi va amaliyoti (umumiy o‘rta ta‘lim va pedagogika kollejining «boshlang‘ich ta‘lim» yo‘nalishi misolida): Ped.fan.dok. dis. – Toshkent: O‘MKHTTKMOUQTI, 2012. – 288 b.; Isimova A.E. Darsdan tashqari ta‘lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarda sog‘lom turmush tarzini shallantirishning pedagogik shart-sharoitlari (V–IX sinflar misolida): Ped. fan. nom. dis. – Toshkent, 2004. – 213 b.; Ishmuratov M.J. “Avesto”da mifologik qatlam (tabiat kultlari asosida): Fil. fan. nom. dis. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi Til va adabiyoti instituti, 2002. – 156 b.; Jumanazarova D.U. Sinfdan tashqari o‘qish jarayonida o‘quvchilarda yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish (“Alpomish” va “Zaydinoy” dostonlari misolida): Ped. fan. nom. dis. – Toshkent: O‘zbekiston jahon tillari universiteti, 2010. – 197 b.; Madraimov B.X. Xorazm musiqa folklori vositasida o‘quvchilarni estetik tarbiyalashning pedagogik asoslari (5-7-sinflar misolida): Ped. fan. nom. dis. – Toshkent: T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti, 2008. – 149 b.; Mahkamov U.I. Yuqori sinf o‘quvchilarida axloqiy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik asoslari: Ped. fan. dok. dis. – Toshkent: 1998. – 286 b.; Mamatqulova R.M. Milliy ma‘naviy meros asosida universitet talabalarida xulq-odob fazilatlarini tarbiyalash: Ped. fan.nom. dis. – Toshkent: Toshkent davlat pedagogika universiteti, 1995. – 220 b.; Musurmonova O. Yuqori sinf o‘quvchilari ma‘naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari: Ped. fan. dok. dis. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti, 1993. – 364 b.; Rajabov O‘.M. Kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarini bolalar folklori vositasida insonparvarlik hislarida tarbiyalash (O‘zbekiston qishloq maktablari misolida): Ped. fan. nom. dis. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat oliygohi, 1992. – 164 b.; Teshaboev A.Yu. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda folklor asarlaridan foydalanish: Ped. fan. nom. dis. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika instituti, 1995. – 163 b.; Tilegenov A.T. Xalq dostonlari vositasida o‘smirlarni ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash (“Alpomish” dostoni misolida): Ped. fan. nom. dis. – Toshkent: T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti, 1998. – 149 b.; Tog‘aeva D. O‘zbek demonologik og‘zaki hikoyalarning janr xususiyatlari va badiiyati: Fil. fan. nom. dis. – Toshkent: Qo‘qon davlat pedagogika instituti, 1994. – 120 b.; Quronov M. O‘zbekiston umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy-pedagogik asoslari: Ped. fan. dok. dis. – Toshkent: T.Qori-Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti, 1998. – 316 b.;

² Mardanov Sh.Q. Pedagog kadrlarni ta‘limiy qadriyatlar asosida tayyorlash va malakasini oshirishning pedagogik asoslari: Ped. fan. dok. dis. – Toshkent, 2006. – 302 b.; Nurmanov A.T. Talabalarni samarali muloqot texnologiyasi va texnikasiga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari (auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar misolida). Ped. fan. dok. dis. avtoref. – Toshkent, 2017. – 87 b.; Ro‘zieva D.I. Oliy ta‘lim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishning ilmiy pedagogik asoslari: Ped. fan. dok. dis. avtoref. – Toshkent, 2007. 36 b.; Xodjaev B.X. Umumta‘lim maktabi o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta‘minot vositasida rivojlantirish. Ped. fan. dok. dis. avtoref. – Toshkent, 2016. – 82 b.; Sharipov Sh.S. O‘quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviylikini ta‘minlashning nazariyasi va amaliyoti: Ped. fan. dok. dis. avtoref. – Toshkent, 2012. – 46 b.; Шарипова Д.Д. Научные основы гигиенического воспитания обучающихся. Автореф. дис. ... док. наук. – Ташкент, 1990. – 47 с.

³ Василичи В. Феномен актерского восприятия и его значение в процессе профессионального воспитания актёра. Автореф. дис. ... канд. искусств. наук. – Москва, 2019. – 32 с.; Давыдова И. Театральность в фольклоре коренных народов Севера, Сибири и Дальнего Востока. Кан. дисс. искусств. наук. – Москва, 2008. – 158 с.; Захава Б.Е. Мастерство актёра и режиссёра. Москва, Просвещение, 1978. – 352 с.; Кристи Г.В. Воспитание актёра школы Станиславского. – Москва: Искусство, 1968. – 455 с.; Кирьянова О.А. Педагогические условия подготовки будущих режиссёров к деятельности в социально-культурной сфере: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Иркутск: Иркутский государственный педагогический университет, 2008. – 20 с.; Пушкарев В. Культурный потенциал современного фольклорного театра. Автореф. Кан. дисс. искусств. наук. – Москва, 2011. – 52 с.; Пак Ч.Ч. Роль российской театральной школы в формировании современной системы воспитания корейских актёров: Автореф. дис. ... канд. искусств. наук. – Москва: Российской академии театрального искусства - ГИТИС, 2006. – 26 с.; Станиславский К.С. Работа актёра над собой. Часть 2. Работа над собой в творческом процессе воплощения. Дневник ученика. Собрание сочинений в восьми томах. Том 3. – Москва: Искусство, 1954. – 434 с.; Станиславский К.С. Собрание сочинений в 9-ти т. Том третий. Работа актёра над собой. Часть 2. Работа над собой в творческом

tendensiyalari, aktyorlik san'ati vakillarini tayyorlash jarayonida uning pedagogik imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan o'rganilgan.

Xorijlik tadqiqotchilardan R.E.Butland, E.Baker, T.A.Carr, M.R.Davey, A.Deidre, B.J.Hallstoos, P.Krishnasvami, M.Krishnasvami, U.V.Lambeth, P.Prithiviraj, J.M.Schmid, K.L.Tollefson-Hall¹ izlanishlarida folklor va xalq og'zaki ijod namunalarini targ'ib etish, ommalashtirish, folklor ijrochilarining aktyorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning metodologiyasi, amaliyotda qo'llashning ilmiy va nazariy ahamiyati hamda metodik asoslarini takomillashtirishning ayrim jihatlari sifatida tashkiliy-pedagogik, pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish bo'yicha tadqiqot olib borgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Yangi O'zbekistonda milliy madaniyatni rivojlantirish strategiyasi: an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy talablar uyg'unligida madaniyat va san'at sohasi mutaxassislarini tayyorlashning nazariy-konseptual asoslari" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo'lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko'nikmasini rivojlantirishda olib boriladigan tarbiya tizimining metodik talablarini aniqlashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

bo'lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko'nikmasini rivojlantirishning mezonlari va ko'rsatkichlarini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

процессе воплощения. Вступит статья Покровского Б.А. Общая редакция Смелянского А.М. – Москва: Искусство, 1990. – 508 с.; Чепинога А.В. Действенная интонация в режиссуре и мастерстве актера музыкального театра: Автореф. дис. ... канд. искусств. наук. – Москва: ГИТИС, 2011. – 23 с.

¹ Butland, Rowena Emily. (2009). Scaling Angkor: Perceptions of Scale in the Interpretation and Management of Cultural Heritage. PhD Thesis, School of Geosciences The University of Sydney. – 319 p.; Baker E. Exploring meanings of professional development: teacher perspectives: Candidate for the Doctor of Education Degree. Kansas City, Missouri. 2014. – 492 p.; Carr, T.A. (2015). Addressing the non-artist's approach to art: a study of pre-service teachers in an art methods course. Doctor of Philosophy (PhD), University of Iowa. August 2015. [Electronic resource]. – Access mode: doi.org/10.17077/etd.nyqxbq.; Davey, Mervyn Rex. (2011). "As is the manner and the custom" Folk tradition and identity in Cornwall. PhD Thesis, University of Exeter. – 557 p.; Deidre A. (Ph.D). The impact of professional development on student achievement as measured by math and science curriculumbased assessments. Dissertation Prepared for the Degree of doctor of education. University of North Texas. 2013. – 81 p.; Hallstoos, B. J. (2010). Windy city, holy land: Willa Saunders Jones and black sacred music and drama. Doctor of Philosophy (PhD), University of Iowa. Summer 2010. [Electronic resource]. – Access mode: doi.org/10.17077/etd.iolf04.; Krishnaswami P., Krishnaswami M. Mainstream Tradition and Exclusive Traditions: A Study of Kongu Folk Epic Annanmar Kathai // International Journal of Social Science and Humanities Research ISSN 2348-3164 (online) Vol. 3, Issue 3, 2015. – p. 220-224.; Lambeth, Ufoovicky. (2009). Care experiences of looked-after, Dual heritage young people. PhD Thesis, University of Southampton. – 340 p.; Prithiviraj P. Continuing professional development and quality of teaching: a case study of State Secondary Schools in Mauritius. Thesis submitted for the award of Doctor in Education (EdD). University College London. 2018. – P. 150.; Schmid, J. M. (2009). Performance, poetics, and place: public poetry as a community art. Doctor of Philosophy (PhD), University of Iowa. Summer 2009. [Electronic resource]. – Access mode: doi.org/10.17077/etd.krzrl0dg.; Tollefson-Hall, K. L. (2009). Alternativeness in art education: case studies of art instruction in three non-traditional schools. Doctor of Philosophy (PhD), University of Iowa. July 2009. [Electronic resource]. – Access mode: doi.org/10.17077/etd.amvxh7aa.

bo'lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish modelini ishlab chiqish;

"ArtFolk" texnologiyasini ishlab chiqish hamda pedagogik tajriba-sinovlarni tashkil etish, o'tkazish.

Tadqiqotning obyekti sifatida bo'lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti va mazkur institutning Nukus filiali hamda Farg'ona mintaqaviy filialining 642 nafar respondent-talabalari ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini bo'lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning mazmuni, jarayoni, takomillashtirish shakli va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya, modellashtirish), diagnostik (so'rovlar, test o'tkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik eksperiment va matematik statistika (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash) usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

folklor ijrochilarining aktyorlik mahoratini shakllantirishda interfaol va innovatsion metodlar (dramatizatsiya, improvizatsiya, rolga kirish, performativ trening)ning samaradorligi ilmiy asoslanib, teatr pedagogikasi, folklorshunoslik va performativ san'at tamoyillarining sintezi asosida kompetensiyaviy yondashuv tizimlashtirilgan;

raqamli texnologiyalar asosida aktyorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning yangi metodik yondashuvi ta'lim jarayoniga integratsiyalanib, aktyorlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi etnostenik rekonstruksiya, improvizatsion dramatizatsiya, rolli talqin mualliflik metodlarining o'zaro integratsiyalashgan holda tizimli-jarayonli va refleksiv mexanizmlari bilan spetsifik korrelyatsiya asosida takomillashtirilgan;

aktyorlik ko'nikmalarni rivojlantirishga doir integrativ-pedagogik model ishlab chiqilib, bo'lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko'nikmasini rivojlantirish modeli motivatsion, konseptual, kognitiv, operatsional, baholash va natija komponentlari kontekstida an'anaviy va innovatsion ifoda shakllarining diletant va professional ijro darajalari bilan differensial integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

aktyorlik kompetensiyasini baholash mezonlari va indikatorlari ishlab chiqilib, bo'lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning samaradorlik darajalari raqamli media ta'lim kontekstida interaktiv testlar, kreativ podkastlar, multimodal mashqlarning sahnaviy interpretatsiyasida badiiy-estetik, analitik va kommunikativ kompetensiyalarga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bo'lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning "ArtFolk" texnologiyasining tashkiliy-ijodiy loyihalashtirish bosqichlari ishlab chiqilgan;

bo'lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning metodik tizimi takomillashtirilgan;

tajriba-sinov ishlari asosida taklif etilgan metodik yondashuvlarning samaradorligi aniqlanib, folklor ijrochiligining aktyorlik komponentlarini rivojlantirishda amaliy-ijodiy yondashuvning samaradorligi aniqlangan;

“Folklor asarlarini sahnalashtirish” nomli o‘quv qo‘llanma nashr etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llangan ilmiy-nazariy yondashuvlar xorijiy va mahalliy tajribalar asosida qiyosiy tahlil qilingani, rasmiy manbalardan olingan ma‘lumotlardan foydalanilgani, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik tahlil usullari vositasida aniqlangani, xulosa va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalar vakolatli organlar tomonidan e‘tirof etilganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, taklif etilayotgan tavsiyalar bo‘lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy asoslari, pedagogik tizimi va o‘qitish texnologiyalari, o‘quv-reja va dasturlaridan pedagogika fanlarini o‘qitishda va pedagogik tadqiqotlarni olib borishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bo‘lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayoniga tatbiq etish uchun “ArtFolk” texnologiyasi ishlab chiqilganligi, bo‘lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarning didaktik va metodik ta‘minotining takomillashuvi, mualliflik konsepsiyasi asosida ishlab chiqilgan amaliy mashg‘ulotlar tizimi, interfaol metodlar majmuasi hamda o‘quv qo‘llanma, o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo‘lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha olingan tadqiqot natijalari asosida:

folklor ijrochilarining aktyorlik mahoratini shakllantirishda interfaol va innovatsion metodlar (dramatizatsiya, improvizatsiya, rolga kirish, performativ trening)ning samaradorligi ilmiy asoslanib, teatr pedagogikasi, folklorshunoslik va performativ san‘at tamoyillarining sintezi asosida kompetensiyaviy yondashuv tizimlashtirilgan xulosa va takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tasarrufidagi oliy ta‘lim muassasalari o‘quv faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2024-yil 22-noyabrdagi 02-11-17-3932-son ma‘lumotnomasi). Natijada, bo‘lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari takomillashtirilgan;

raqamli texnologiyalar asosida aktyorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning yangi metodik yondashuvi ta‘lim jarayoniga integratsiyalanib, aktyorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi etnostenik rekonstruksiya, improvizatsion dramatizatsiya, rolli talqin mualliflik metodlarining o‘zaro integratsiyalashgan holda tizimli-jarayonli va refleksiv mexanizmlari bilan spetsifik korrelyatsiya asosida takomillashtirilgan xulosa va takliflardan “Folklor asarlarini sahnalashtirish” o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 4-martdagi 55-son buyrug‘iga asosan berilgan nashr

ruxsatnomasi). Natijada, bo'lajak folklor ijrochilarning aktyorlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi takomillashtirilgan;

aktyorlik ko'nikmalarni rivojlantirishga doir integrativ-pedagogik model ishlab chiqilib, bo'lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko'nikmasini rivojlantirish modeli motivatsion, konseptual, kognitiv, operatsional, baholash va natija komponentlari kontekstida an'anaviy va innovatsion ifoda shakllarining diletant va professional ijro darajalari bilan differensial integratsiyalash asosida takomillashtirilgan xulosa va takliflardan Teatr arboblari uyushmasi tomonidan tashkil etilgan festivallar, konferensiyalar, ijodiy uchrashuvlar, mahorat darslari va teatr rahbarlari va xodimlarining malakasini oshirish jarayonida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Teatr arboblari uyushmasining 2025-yil 14-avgustdagi 01-02-64-son ma'lumotnomasi). Natijada, "ArtFolk" art texnologiyasining tashkiliy-ijodiy loyihalashtirish bosqichlari ishlab chiqilgan;

aktyorlik kompetensiyasini baholash mezonlari va indikatorlari ishlab chiqilib, bo'lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning samaradorlik darajalari raqamli media ta'lim kontekstida interaktiv testlar, kreativ podkastlar, multimodal mashqlarning sahnaviy interpretatsiyasida badiiy-estetik, analitik va kommunikativ kompetensiyalarga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan xulosa va takliflardan "Folklor asarlarini sahnalashtirish" o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 4-martdagi 55-son buyrug'iga asosan berilgan nashr ruxsatnomasi). Natijada, bo'lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko'nikmasini rivojlanganligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini ilmiy-pedagogik jihatdan aniqlash imkoni oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 9 ta ilmiy maqola, shundan 7 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, asosiy matn 130 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti aniqlangan, shuningdek, tadqiqot ishi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarining amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **"Bo'lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari"**

deb nomlangan birinchi bobi uch paragrafdan iborat bo'lib, birinchi paragrafda folklor va aktyorlik san'ati tushunchasi hamda uning mazmun-mohiyati, ikkinchi paragrafda folklor ijrochilarining aktyorlik ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning holati, uchinchi paragrafda mavzuning ijtimoiy-pedagogik zarurati tadqiq etilgan.

Folklor – iqtidorli hamda katta amaliy tajribaga ega, ongi va tasavvuri rivojlangan shaxsning so'z, ohang, ritm va raqs orqali badiiy shaklda ifodalagan ijod mahsulidir. Xalq orasidagi iste'dodli kishilar so'z, musiqa, raqs, tasviriy va amaliy san'at vositasida o'z tuyg'ularini obrazli ifodalay olishi bilan ajralib turgan. Ana shunday ijodiy yo'nalishlardan hisoblangan folklor turlari og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga sayqallanib o'tib kelmoqda.

Folklor ijrochiligi – bu nafaqat matn yoki kuyni ifoda etish, balki badiiy obraz yaratish, voqeani sahnaviy shaklda jonlantirish, tinglovchi yoki tomoshabin qalbiga bevosita murojaat qilish mahoratidir. Shu bois folklor ijrochisi sahna san'atining ayrim muhim elementlariga ega bo'lishi talab etiladi. Jumladan, aktyorlik ko'nikmalari, ya'ni obrazga kirish, dramatik vaziyatda o'zini tutish, sahna nutqini boshqarish, mimika, jest, tana harakati, auditoriya bilan interaktsiya kabi komponentlar folklor san'atining sahnadagi ta'sirchanligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Aktyorlik ko'nikmalari deganda: sahna nutqining ravonligi; obrazga kirish va uni ifodalash qobiliyati; sahna harakati va jest-mimik ifodaning tabiiyligi; auditoriya bilan muloqot qilish, kontakt o'rnatish layoqati; dramatik tafakkur va sahnaviy uyg'unlikni saqlay olish kabi jihatlar tushuniladi. Aynan mana shu omillar folklor ijrochisining sahnadagi ta'sirchanligini oshiradi, tomoshabinni hissiy jihatdan jalb etadi va an'anaviy madaniyatning jonli namoyishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida bo'lajak folklor ijrochilarini har tomonlama yetuk, sahnada erkin va ishonchli chiqish qila oladigan, erkin ijodkor mutaxassis sifatida shakllantirish dolzarb masalalardan biri sanaladi. Xususan, ularning ijodiy faoliyatida aktyorlik ko'nikmalari, sahna nutqi va badiiy obraz yaratish salohiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan qaralganda, folklor ijrochiligi jarayonida nafaqat musiqiy ijro mahorati, balki badiiy ifodaning aktyorlik elementlari bilan uyg'unligi ta'lim-tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Bo'lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko'nikmasini rivojlantirish bugungi kunda nafaqat kasbiy zarurat, balki ijtimoiy-pedagogik jihatdan ham dolzarb va muqarrar ehtiyojdir. Quyidagi asoslar bu fikrni yanada mustahkamlaydi: *ijtimoiy zarurat nuqtayi nazardan* – folklor ijrochisi oddiy ijrochi emas, balki xalqning og'zaki ijod namunalari, urf-odatlari, qadriyatlar va tarixiy xotirasini ommaga yetkazuvchi madaniy targ'ibotchi sifatida faoliyat yuritadi. U jamiyatda milliy o'zlikni anglash, ma'naviy uyg'unish, estetik dunyoqarashni shakllantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi; *pedagogik ehtiyoj nuqtayi nazardan* – zamonaviy ta'lim jarayoni talabalarning nafaqat bilim va texnik ko'nikmalarini, balki ijodiy tafakkuri, sahna madaniyati, obraz yaratish, auditoriya bilan muloqotga kirishish kabi kompleks yondashuvlarni shakllantirishga qaratilgan. Ayni paytda ko'plab san'at yo'nalishidagi oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida folklor ijrochilari uchun maxsus aktyorlik mashg'ulotlarining yo'qligi yoki sust tashkil etilgani, ularning sahnadagi erkinlik, nutq boyligi, dramatik talqin kabi jihatlarda zaif ko'rinishiga olib kelmoqda; *amaliy*

kamchiliklar nuqtayi nazardan – amaliy, ijodiy chiqishlari va ijro jarayonlarida kuzatilayotgan asosiy kamchiliklardan biri – aktyorlik va obrazli ifoda vositalaridan foydalanishdagi cheklanganlikdir. Bo‘lajak folklor ijrochilari folklor matnlarini to‘g‘ri va to‘liq yod olsa-da, ularni emotsional, obrazli talqin etish borasida sustkashlik qiladi; *yangi metodik yondashuv zarurati nuqtayi nazardan* – zamonaviy pedagogik amaliyot talablariga muvofiq, folklor ijrosi va aktyorlik san‘atini integratsiyalashgan holda o‘rgatish bo‘yicha maxsus o‘quv texnologiyalarini ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda. Bu texnologiyalar nafaqat nazariy bilimlarga, balki sahnadagi real ijro tajribasiga, dramatik holatlarni yaratish usullariga, improvizatsiyaga asoslangan bo‘lishi lozim.

Tadqiqotchi R.T.Kadirov tomonidan talabalarda aktyorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish yuzasidan ularda dars mashg‘ulotiga bo‘lgan munosabatini shakllantirish bosqichlari aniqlangan bo‘lib, mazkur bosqichlarni bizning tadqiqotimizda quyidagicha amalga oshirish maqsadga muvofiq: *1-bosqich*. Dars boshlangunga qadar ijodiy ustaxonani mashg‘ulotga tayyorlash (tozalik, tegishli o‘quv qurollarini shay holatga keltirish), mashg‘ulotga tayyorgarlik ko‘rish (maxsus forma kiyish, sochlarni tartibga keltirish, trening mashqlarini bajarish); *2-bosqich*. Dars jarayonida umumiy trening mashqlarini bajarish orqali talabalarni faollashtirish, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, yangi mavzuni o‘zlashtirish, yangi mashqlarni bajarish, individual mashqlarni bajarish, shaxsiy repertuarni tuzish va tasdiqlatish, uyga vazifalarni yozib olish; *3-bosqich*. Darsdan keyingi jarayonda uyga vazifani tayyorlash, mavzuga oid materiallar to‘plash va o‘zlashtirish, keyingi mashg‘ulotga tayyorgarlik ko‘rish, shaxsiy repertuar ustida ishlash.

Tadqiqot jarayonida bo‘lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda ijodiy faollikni takomillashtiruvchi quyidagi omillar aniqlandi: *Motivatsion omillar* – milliy qadriyatlarga qiziqish, sahnada o‘zini ifodalashga intilish va ijodiy yutuqlarning e‘tirofi orqali ijodiy faollikni rag‘batlantirish; *didaktik omillar* – “Rol o‘ynash”, “Improvizatsion”, “Issiq stul” kabi metodlar orqali ijodiy fikrlash va ijodiy izlanish ko‘nikmalarini rivojlantirish; *texnologik omillar* – raqamli texnologiya vositalar yordamida o‘z chiqishlarini tahlil qilish, sahna madaniyatini takomillashtirish hamda ijodiy o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini shakllantirish; *ijodiy muhit omillari* – jamoaviy sahna ishlari, folklor namunalarini sahnalashtirish va amaliy tajriba almashinuvi orqali ijodiy tashabbusni qo‘llab-quvvatlash; *ijtimoiy omillar* – sahna san‘atining jamiyatdagi ahamiyatini anglash, ijtimoiy mas‘uliyat hissi va badiiy-estetik qarashlarni chuqurlashtirish.

Folklor ijrochilarining aktyorlik mahoratini shakllantirishda interfaol va innovatsion metodlar (dramatizatsiya, improvizatsiya, rolga kirish, performativ trening)ning samaradorligi ilmiy asoslanib, teatr pedagogikasi, folklorshunoslik va performativ san‘at tamoyillarining sintezi asosida kompetensiyaviy yondashuv tizimlashtirilgan.

Tadqiqot natijasiga ko‘ra oliy ta‘limda bo‘lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko‘nikmasini rivojlantirish uchun ijtimoiy munosabatlarning quyidagi jihatlarga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq. Bular: ustoz-shogird o‘rtasidagi ijodiy va ishonchli aloqani yo‘lga qo‘yish; nutq, plastika va sahnaviy emotsional holatni ifoda etishga oid amaliy mashg‘ulotlarni tizimli tashkil etish; milliy qadriyatlar asosida


talabaning sahna obrazini ongli ravishda qurishga yo'naltirish; sahnadagi jamoaviy ishlash madaniyatini shakllantirish; taqlid, diqqat, improvizatsiya, pantomima kabi ijodiy mashqlar orqali ifoda imkoniyatlarini kengaytirish; talabaning o'zini sahnada erkin tutishi uchun ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish. Shuningdek, aktyorlik ko'nikmalarini samarali rivojlantirish uchun individual yondashuv, konstruktiv tanqid, muntazam sahna amaliyoti va interaktiv metodlardan foydalanish zarur. Aynan ana shunday omillar ijrochi shaxsining ichki salohiyatini uyg'otadi, obraz ustida mustaqil ishlash, ifoda vositalaridan ongli foydalanish va sahnadagi tabiiylikka erishishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning mazmuni, shakl, metod va vositalari”** deb nomlangan ikkinchi bobi uch paragrafdan iborat bo'lib, birinchi paragrafda bo'lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko'nikmasini rivojlantirish modeli va texnologiyasi, ikkinchi paragrafda auditoriya mashg'ulotlarida folklor ijrochilarining aktyorlik ko'nikmasini rivojlantirishning interfaol metodlari va uchinchi paragrafda auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda folklor ijrochilarining aktyorlik ko'nikmasini rivojlantirishning texnologik imkoniyatlari tadqiq etilgan.

Bo'lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayonini modellashtirishda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari, fan-texnika yutuqlari, yaratilayotgan yangiliklar va rivojlanishlar, yoshlarning intellektual salohiyatining o'sib borishi, rivojlanib borayotgan davlat, jamiyat va shaxs ehtiyojlari, rivojlanishlarga bog'liq holda kun sayin o'zgarib, yangilanib va rivojlanib borayotgan zamonaviy talablarga asoslanish lozim.

Tadqiqot jarayonida bo'lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish modeli ishlab chiqildi (1-rasmga qarang). Aktyorlik ko'nikmalarni rivojlantirishga doir integrativ-pedagogik model ishlab chiqilib, bo'lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko'nikmasini rivojlantirish modeli motivatsion, konseptual, kognitiv, operatsional, baholash va natija komponentlari kontekstida an'anaviy va innovatsion ifoda shakllarining diletant va professional ijro darajalari bilan differensial integratsiyalash asosida takomillashtirilgan. Bo'lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish modeli ta'limning uzluksizligi va uzviyligini ta'minlashda muhim ilmiy-ijodiy jarayon bo'lib, o'z navbatida davlatimizning ustuvor masalalarining biri hisoblangan fan va ishlab chiqarishning o'zaro integratsiyalashga oid vazifalarning ijrosini ta'minlashni mustahkamlash kafolatidir.

Xususan, mazkur model bo'lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga oid bilim va ko'nikmalarini artpedagogik yondashuvga asoslangan hamda integratsiyalashgan muhitda samarali va sifatli o'qitish, bu borada talabalarda shakllantirilishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni samarali egallashga oid bo'lgan o'qitish jarayonini mantiqiy-semantik loyihalashtirish hamda uning mazmunini variativlashtirish va unifikatsiyalashga oid masalalarning yechimini topish maqsadida bo'lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko'nikmasini rivojlantirishga yordam beradi.



1-rasm. Bo'lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish modeli

Bo'lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish modelining tarkibiy qismi bir nechta komponentlardan iborat. Jumladan, maqsad va vazifalar, motivatsion, kognitiv, operatsional, baholash va natijalar komponentlarini o'zi ichiga qamrab oladi hamda ushbu har bir komponentlar Bo'lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko'nikmasini rivojlantirishga oid bilim va ko'nikmalarni takomillashtirish jarayonida o'zining salmoqli o'rni va ahamiyati mavjud.

Mazkur modelining maqsadi artpedagogik yondashuv asosida bo'lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga oid bilim va ko'nikmalarini zamonaviy talablar, jahon standartlari asosida takomillashtirish, vazifalari esa, artpedagogik yondashuvga asoslangan o'quv jarayonini zamonaviy raqamlashtirilgan sharoitda, zamonaviy nazariya va amaliyotning integratsiyalashgan muhitida tashkil etish.


Motivatsion komponentda – folklor va aktyorlik san'atining uyg'unligi haqida tasavvur hamda milliy ifoda vositalariga qiziqish uyg'otish, bo'lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy asoslarini belgilab beruvchi ijtimoiy buyurtma bilan bog'liq.

Kognitiv komponenti – bo'lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning mazmuni bo'lib, bo'lajak folklor ijrochilari o'quv jarayonida umumiy va kasbiy bilim va ko'nikmalarni egallashi zarur hisoblanadi. Bunda umumiy bilim va ko'nikmalarda – bo'lajak folklor ijrochilari davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lishi, mustaqil tahlil qila olishi, madaniyat va san'at sohasida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, bo'lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga doir bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi, axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallash kabi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi nazarda tutiladi.

Operatsional komponenti – bo'lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayoni hisoblanadi. Bu tarkibiy qismda 1) ijodiylik; 2) madaniy asos; 3) texnologiya; 4) kompetensiya kabi to'rt asosiy yondashuv elementlar o'zida aks ettirib, bo'lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga doir faoliyatga jalb etishning to'rtta tamoyillarini qamrab oladi.

Baholash va natija komponentda – o'z-o'zini tahlil etish, o'z-o'zini baholash va nazorat qilish usullarini qo'llash, ijrochilik mahoratini o'rganish, multimedia va badiiy vositalardan foydalanish, individual, guruhli, suhbat, kuzatish usullarini qo'llash, ijrochilik mahoratini tekshirish, ijodiy ko'rik va muhokamalarda ommaviy, guruhli, individual bahs munozara tashkil etish nazarda tutiladi.

Tadqiqot jarayonida bo'lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning "ArtFolk" texnologiyasi ishlab chiqildi (2-rasmga qarang):



2-rasm. Bo'lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning "ArtFolk" texnologiyasi

